

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO‘MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Himoyaga ruhsat
Kafedra mudiri

2014 y. «____» _____

“AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNGA OID ELEKTRON KUTUBXONA”

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ Tursunov G'. E.
imzo

Rahbar _____ M. A. Raxmatullayev.
Imzo

Taqrizchi _____ Burdieva Z.SH.
Imzo

HFH bo'yicha _____ Abdullaeva S.M
maslahatchisi imzo

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi” fakulteti

“Axborot kutubxona tizimlari” kafedrası

“Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” yo‘nalishi

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri

«___» _____ 2014 y.

Talaba _____ Tursunov G'iyosiddin Erkin o'g'li _____ ning
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

“Axborot kutubxona dizaynga oid elektron kutubxona” mavzusidagi bitiruv malakaviy
ishiga

T O P S H I R I Q

1. Mavzu universitetning 20__ yil «___» ___dagi _____-sonli buyruq bilan tasdiqlangan
2. Ishni himoyaga topshirish muddati _____
3. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar: mavzu tasdiqlandi , mavzuga oid adabiyotlar to'plandi, kerakli ma'lumotlar aniqlandi.
4. Hisoblash–tushuntirish yozmalar mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

5. Grafik materiallar ro'yhati: Bitiruv malakaviy ishda aks ettirilgan rasmlar, bitiruv malakaviy ishi taqdimoti.
6. Topshiriq berilgan sana _____

Rahbar _____
imzo

Topshiriqni oldim _____
imzo

7. BMI ishining har bir bo‘limiga bajariladigan ishlarga maslahatlar.

Bo‘lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
1-bo‘lim. Axborot kutubxona dizayniga oid elektron kutubxonalar yaratish texnologiyalarining tahlili	Raxmatullayev M.		
2-bo‘lim. Axborot kutubxona dizayniga oid web saytning tashkiliy va funksional strukturasi	Raxmatullayev M.		
3-bo‘lim. Axborot kutubxona dizayniga oid web sayt ishlab chiqish bosqichlari	Raxmatullayev M.		
4-bo‘lim. Hayot faoliyati havfsizligi	Abdullayeva S.M.		

8. Ishni bajarish grafigi

T/r	Ish bo‘limlari nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) imzosi
1.	Axborot kutubxona dizayniga oid elektron kutubxonalar yaratish texnologiyalarining tahlili		
2.	Axborot kutubxona dizayniga oid web saytning tashkiliy va funksional strukturasi		
3.	Axborot kutubxona dizayniga oid web sayt ishlab chiqish bosqichlari		
4.	Hayot faoliyati havfsizligi		
5.	Xulosa		

Bitiruvchi _____
imzo

2014yil «_____»

Rahbar _____
imzo

2014yil «_____»

MUNDARIJA

	KIRISH.....	6
I.	AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNIGA OID ELEKTRON KUTUBXONALAR YARATISH TEXNOLOGIYALARINING TAHLILI.....	8
1.1	Axborot kutubxona dizayni, uni loyixalashtiruvchi dasturiy taʼminotlar.....	8
1.2	Axborot kutubxonalari jixozlanishiga talablar.....	38
	1 –bob boʻyicha xulosa.....	41
II.	AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNIGA OID WEB SAYTNING TASHKILIY VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	42
2.1	Elektron kutubxona dizayniga oid web saytning tashkiliy va funksional tuzilmasi.....	42
2.2	Web saytdan maʼlumotlar kiritish hamda qidirish algoritmlari	44
	2 – bob boʻyicha xulosa.....	47
III.	AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNIGA OID WEB SAYT ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	48
3.1	Web sayt uchun maʼlumotlar bazasi yaratish.....	48
3.2	Dasturiy kompleksni yaratish, ishga tushirish va undan foydalanish.....	52
	3 – bob boʻyicha xulosa.....	56
IV.	HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI.....	57
4.1	Harakat faolligini inson sogʻligi va faoliyatiga taʼsiri.....	58
4.2	Favqulodda holatlar haqida tushuncha.....	60
	XULOSA.....	65
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....	66
	ILOVA.....	68

Ushbu bitiruv malakaviy ishi axborot kutubxona dizayniga oid elektron kutubxona yaratishga bag'ishlangan. Bitiruv malakaviy ishida zamonaviy axborot kutubxona muassasalarini loyixalashtirishga talablar, loyixalashtirishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlar yechimlari ko'rib chiqilgan.

Данная выпускная квалификационная работа посвящена созданию электронная библиотека по информационная библиотечная дизайна. В работе проанализированы условия по проектирование информационная библиотечная учреждения и решении программные обеспечение которые пользуется в проектирование.

This final qualification work is devoted to create electronic library from designing information library buildings. In the final qualification work demands for designing information library buildings and solutions of using software designing libraries.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlash to'g'risida", 2011 yil 23 fevraldagi 1487-sonli "2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2011 yil 13 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati" to'g'risidagi Qonunida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Har qanday mamlakatni dunyoda tutgan o'rnini, qudratini va kelajagini uning xalqi belgilaydi. Xalqi ilimli, ma'rifatli, ma'naviyati yuksak va har tomonlama kuchli bo'lgan mamlakat ham poydevori mustahkam, buyuk davlat bo'ladi. Xalqning yuqoridagi xislatlarga ega bo'lishida esa axborot kutubxonalarining o'ri beqiyosdir. Shuning uchun ham axborot kutubxonalar dizaynining o'ri bu yerda muhim ahamiyatga egadir. Xalqning ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishida AKM va ARM larning o'ri beqiyosdir. Ma'naviyatsiz buyuk kelajak yo'q. Chunki uni robotlar emas, insonlar yaratadi. Insonlar ongi qanday bo'lsa, mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo'ladi.. Ana shu sarmoya tobora kengroq miqyosda muomalaga kirgan sari, hosil unumliroq bo'la beradi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqei yuksalaveradi.

Zamonaviy kutubxonalarni yaratishda nafaqat uning fondi, unda ishlatiladigan eng so'nngi texnologiyalar yoki kutubxonada ishlaydigan hodimlar malakasi muhim hisoblanadi, balki kutubxona arxitekturasini, interyer dizayni, kutubxona xona va zallarida jixozlarning joylashuvi kerakli jixozlarni tanlay bilish va ularni foydalanuvchilarni xalaqit bermaydigan qilib joylashtirish ham muhim hisoblanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida yurtimizda hamda horijiy davlatlarda qurilgan zamonaviy ko'rinishdagi kutubxonalar arxitekturalari keltirib o'tilgan.

Ushbu malakaviy bitiruv ishining **maqsadi** axborot kutubxona dizaynini yaratishda qo'yiladigan talablar, jixozlanish, kutubxona interyer dizaynlarini o'rganish hisoblanadi. Shu munosabat bilan malakaviy bitiruv ishida quyidagi **vazifalari qo'yildi**:

- Axborot kutubxon dizayni va uni loyixalash;
- Axborotkutubxona dizaynini loyixalashda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlar;
- Axborot kutubxona bino va inshootlarini jixozlashdagi talablar;
- Axborot kutubxona dizaynlari xaqida ma'luot beruvchi web sayt ishlab chiqish, ma'lumotlar bazasi yaratish, uni ishga tushirish va undan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, to'rta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Birinchi bob "Axborot kutubxona dizayniga oid elektron kutubxonalar yaratish texnologiyalarining tahlili" deb nomlanadi. Unda axborot kutubxona dizaynini loyixalashtirishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotlar, kutubxonalarni jixozlashga bo'laigan talablar ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi bob "Axborot kutubxona dizayniga oid web saytning tashkiliy va funksional strukturasi" deb nomlangan. Ushbu bobda axborot kutubxona dizayniga oid web saytning tashkiliy-funksional tuzilmalari, web saytga ma'lumotlarni kiritish hamda ma'lumotlarni qidirish algoritmlari bayon etilgan,

Uchinchi bob "Axborot kutubxona dizayniga oid web sayt ishlab chiqish bosqichlari" deb nomlangan. Ushbu bobda web sayt uchun ma'lumotlar bazasi yaratish, uni ishga tushirish va undan foydalanish hamda foydalanuvchilar uchun asosiy sahifa ko'rinishlari yoritilgan.

To'rtinchi bob "Hayot faoliyati havfsizligi" deb nomlangan. Ushbu bobda mehnatni muxofaza qilish qonuniyatlari asoslari hamda ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalarni oldini olish masalalari yoritilgan.

Xulosada ushbu malakaviy bitiruv ish davomidagi yakuniy xulosalar bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida malakaviy bitiruv ishini yaratishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati berilgan.

1 BOB. AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNIGA OID ELEKTRON KUTUBXONALAR YARATISH TEXNOLOGIYALARINING TAHLILI

1.1. Axborot kutubxona dizayni, uni loyixalashtiruvchi dasturiy ta'minotlar

Avvalambor har qanday inshootni xox u uy bo'lsin, xox axborot kutubxona markazi yoki boshqa har qanday binoni qurishni boshlashdan avval uni quriladigan joy tanlanadi, shu yerning reliefi xususiyatlari ya'ni bu joy toshloqmi yoki botqoqmi avval qanday joy bo'lgan kabi barcha tomonlari qarab chiqiladi. Bunday tomonlari qarab chiqilgandan so'ng ushbu joy biz qurmoqchi bo'lgan inshootga tog'ri keladimi yoki yo'qmi mutaxassislar tomonidan o'rganilib chiqilgandan so'ng birgalikda biror xulosaga kelinadi. Agar bu yer biz qurmoqchi bo'lgan binoga mos deb topilsa, u holda keyingi qilinadigan ish bu shu joy atrofidagi boshqa bino yoki shunga o'xshash joylarga xalaqit bermaydigan qilib va quyosh chiqishi botishi, shamolning yo'nalishi kabi ob-havo sharoitlarini ham inobatga olgan holda inshootimiz planlashtiriladi. Shu o'rinda aytishim kerakki hozirgi kunda zamon rivojlanib o'sha qurmoqchi bo'lgan inshootimizni kelajagdagi tayyor bitgan ko'rinishini biz avvaldan ko'rish va ma'lum tuzatishlar kiritish imkoniga egamiz bu narsa buzub qurgandan ko'ra anchayin foydali albatda, ya'ni bunda biz unga ketadigan vaqt, mehnat, ortiqcha sarf –xarajatlarni tejashimiz mumkin. Hozirgi kunda qurilish sohasida 2D va 3D modellar muhim o'rin tutadi. Planlashtirish bo'yicha eng ommaviy dastur bu AutoCAD dasturi hisoblanadi, va Dizayni bo'yicha esa 3D Max dasturi eng keng qo'llaniladi. Ushbu dasturlar yordamida biz yuqoridagi bir qancha ortiqcha ishlardan qutilamiz.

Har qanday binoni loyihalashda uning tashqi hamda ichki dizayni muhim ahamiyatga ega. Dizaynni turlari ko'p ammo unga ortiqcha to'xtalishimiz shartmas. Bu yerda dizaynni o'rni haqida to'xtaladigan bo'lsak, bizdagi AKM yoki ARM larda uchraydigan asosiy kamchiliklari hamda chet el kutubxonalari dizaynining bir qancha afzalliklari haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Bizning axborot kutubxona markazlarimizning ham ko'plab afzalliklari va ustunlik jihatlari

bor ammo bular haqida to'xtalishimiz unchalik shartmas, chunki ular bizda bor. Lekin kamchilik jihatlarini tahlil qilib ularni yechimini topishimiz va dunyoning eng rivojlangan ma'rifat maskanlarini tashkil qilishimiz kerak. Bizda uchraydigan dizayn bilan bog'liq asosiy kamchiliklar sifatida shularni qayd etishimiz mumkinki: bularga eng keragi tabiiy yorug'lik tizimini unchalik shakillanmagani olishimiz mumkin. Lekin dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlari kutubxonalariga qaraydigan bulsak, ulardagi yoritish tizimida imkon qadar tabiiy yorug'likdan foydalanilgan. Ayrimlarida esa tashqi dizayni oyna bilan qoplangan bo'lib, yorug'lik bilan to'la ta'minlangan va shu bilan birgalikda oynalar quyosh batareyasi vasifasini ham bajaradi va binoni to'la elektr quvvati bilan ta'minlaydi ya'ni tashqaridan umuman elektr manbai olmaydi. Bu esa ham elektr zahiralarini tejash imkonini yaratadi. bizda ham bunga e'tibor berilgan bo'lib, ma'lum darajada tabiiy yorug'lik bilan ta'minlangan: Fanlar Akademiyasi Axborot Kutubxona Markazining tom qismida o'quv zalining ustki qismi tabiiy yorug'lik bilan ta'minlangan, Milliy Kutubxonada ham atrofi oyna bilan qoplangan bo'lib bu foydalanuvchilarga tabiiy yorug'likni yetkazib beradi.

Bizdagi ko'pgina Axborot Kutubxona Markazlari va Axborot Resurs Markazlarida noto'g'ri planlashtirilib ko'p holatlar e'tiborga olinmagan. Ularning ko'pchiligi zax, qishdayam yozda ham sovuq, ayrimlarini yerto'lasida kitob saqlanish joylarida ahvol anchayin og'ir hammayog'i zax havo, yerdan suvchiqib qolgan, zaxda bo'ladigan va inson sog'lig'iga katta xaf soluvchi har xil parazit hashoratlar ko'payib ketgan, turli o'tlar o'sib chiqqan, poydevorlar nurab qolgan. Va yana eng keraglisi havo tozalab yetkazib berish umuman talabga javob bermaydi. Bu muammo ya'ni (ventilatsiya) havo aylanishi, tabiiy havoning yo'qligi hatto Milliy Kutubxonaning yangi binosida ham mavjud. Bu hol shu yerda ishlovchi xodimlar va bu yerdan foydalanuvchilar sog'ligiga va mehnat unumdorligi va sifatini pasayishiga olib keladi.

Yaqinda bo'lgan kuchli yomg'ir yog'ganda ham suv ketadigan trubalaridan suv toshib chiqdi, undan tashqari ko'p joylaridan suv oqib elektr quvvatida qisqa tutashuvlar yuzaga keldi va bir qancha shunga o'xshash noxush holatlar yuzaga keldi. Bundan ko'rinib turibdiki bu binolarni qurishda tabiiy hodisalar hisobga olinmagan.

Bulardan xulosa qilib shuni aytishim mumkinki bunday kamchiliklarni tuzatish va keyingi quriladigan ma'rifat maskanlarida shu kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik kerak. Axborot Kutubxona dizaynini o'rni va ahamiyati yana shundaki xox u AKM bo'lsin, xox ARM bo'lsin, unga ishlovchi xodimlar va unga tashrif buyuruvchilarga yetarlicha qulayliklar yaratilishi kerak. Bu maskanlarga kelayotganlar soni ham uning dizayniga bo'g'liq. Jahonning ko'plab zamonaviy kutubxonalari dizaynida: ham uning o'ziga xos ko'rinishi, hamda qulaylik va imkoniyatlarning kengligini kuzatishimiz mumkin. Bunga misol qilib, kutubxonada ishlatilgan ranglarning inson psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qilib tanlanganligi, turli rangdagi va o'zgacha shakldagi yumshoq mebellarning ishlatilganligi, kutubxona ichida ovqatlanish joylarini tashkil etilganligini u yerda foydalanuvchilarga ochiq tarzda kitoblar omborini borligi, har bir yoshdagi foydalanuvchiga mos ravishda bo'limlarning va jihozlarning tashkil etilganligi shiftlarida turli naqshlar, rasm va haykallar bilan bezatilganligi kabi qator qulayliklarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu yerga kelayotgan insonlar bu yerda ziyo olishlari bilan birga ma'naviy hordiq ham olib qaytadilar, ya'ni u yerga tashrif buyurgan inson albatda yana va yana borishni xohlaydi.

Bizda ham xuddi shunday AKM va ARM larni tashkil etishimiz kerak. Har qanday mamlakatni dunyoda tutgan o'rnini, qudratini va kelajagini uning xalqi belgilaydi. Xalqi ilimli, ma'rifatli, ma'naviyati yuksak va har tomonlama kuchli bo'lgan mamlakat ham poydevori mustahkam, buyuk davlat bo'ladi. Xalqning yuqoridagi xislatlarga ega bo'lishida esa axborot kutubxonalarining o'rnini beqiyosdir. Shuning uchun ham axborot kutubxonalar dizaynining o'rnini bu yerda

muhim ahamiyatga egadir. Xalqning ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishida AKM va ARM larning o'rni beqiyosdir. Ma'naviyatsiz buyuk kelajak yo'q. Chunki uni robotlar emas, insonlar yaratadi. Insonlar ongi qanday bo'lsa, mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo'ladi.. Ana shu sarmoya tobora kengroq miqyosda muomalaga kirgan sari, hosil unumliroq bo'la beradi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqei yuksalaveradi,

Bugungi kunda ko'plab grafik dasturlar mavjud bo'lib, ulardan chizma geometriya, muhandislik va dizayn, kompyuter grafikasi fanlariga mos keladiganlari hamda eng ommaviy keng qo'llaniladiganlaridan AutoCAD va 3ds MAX dasturlarini olishimiz mumkin. Ushbu dasturlar chizma standartlariga mos, berilgan o'lchamlarda, yuqori aniqlikda, ikki va uch o'lchamli formatda, chizma chizish qoidalariga asosan chizmalarni bajarishga va chizmalarni JPEG holida saqlashga mo'ljallanganligi bilan ham ajralib turadi.

AutoCAD dasturi



1 - rasm

AutoCAD inglizcha - Computer-Aided Design so'zdan olingan bo'lib, Avtomatlashtirilgan loyiha ishlari uchun mo'ljallangandir.

Ahborot resurs markazlari hamda kutubhonalarni dizaynlari uchun bu dastur ham muhim ahamiyat kasb etadi.

AutoCAD - inglizcha – “Computer-Aided Design” so’zdan olingan bo’lib, Avtomatlashtirilgan loyiha ishlari uchun mo’ljallangandir.

AutoCAD – chizmani komputerdagi tahrirlash dasturi Amerikaning **Autodesk** firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, dastlabki versiyalari o’tgan asrning 80 yillarida chiqarilgan va keng ommalashib ketgan.

Tizimning doimiy rivojlanib borishi, foydalanuvchilarning e’tiroz va maslaxatlari inobatga olinib, kamchiliklarni muayan bartaraf etish va boshqa firmalar maxsulotlari (ayniqsa **Microsoft**) bilan integrasialashuvi ushbu dasturni butun dunyoda keng ommalashuviga olib keldi.

Ushbu dasturning Rossiya keng tarqalishi uning 10 – versiyasidan boshlandi. U **MS DOS** operatsion tizimi tarkibida ishlar edi. Keyinchalik, 12 – 13 versiyalarga doir shu tizimda ishladi va ular sekinlik bilan “**WINDOWS**” (**WINDOWS 3.1** yoki **WINDOWS – 95**) operatsion tizimiga o’tkazila bordi. 14 – versiya to’liq **WINDOWS** operatsion tizimiga o’tkazildi.

1999 yilda **AutoCAD** ning 15 – versiyasi chiqdi va u foydalanuvchilar orasida **AutoCAD – 2000** nomini oldi. **AutoCAD** ning 16 – versiyasi (**AutoCAD - 2004**) 2004 yilning Mart oyida chiqdi va endilikda firma ularning **WINDOWS – 95, 98** operatsion tizimlarida yaxshi ishlashiga kafolat bermasdi. Sababi ushbu dasturning to’liq imkoniyatlaridan foydalanish uchun yanada mukammalroq operatsion tizimlar kerak edi.

Bugungi kungacha **AutoCAD** dasturining ko’plab versiyalari yaratilgan bo’lib, ushbu dastur doimiy ravishda yangilanib turganligi uchun ham o’z o’rnini mustahkam egallagan. quyidagi jadvalda **AutoCAD** ning versiyalar tarixi ko’rsatilgan:

Rasmiy nomi	Versiya	Релиз	Chiqarilgan Vaqti	Izoh
AutoCAD Version 1.0	1.0	1	декабрь 1982	DWG R1.0 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 1.2	1.2	2	апрель 1983	DWG R1.2 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 1.3	1.3	3	август 1983	DWG R1.3 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 1.4	1.4	4	октябрь 1983	DWG R1.4 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 2.0	2.0	5	октябрь 1984	DWG R2.05 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 2.1	2.1	6	май 1985	DWG R2.1 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 2.5	2.5	7	июнь 1986	DWG R2.5 formati taqdim etilgan
AutoCAD Version 2.6	2.6	8	апрель 1987	DWG R2.6 formati taqdim etilgan; matematik protsessorsiz ishlaydigan so`ngi versiya
AutoCAD Release 9	9	9	сентябрь 1987	DWG R9 formati taqdim etilgan
AutoCAD Release	10	10	октябрь 1988	DWG R10 formati taqdim etilgan

10				
AutoCAD Release 11	11	11	октябрь 1990	DWG R11 formati taqdim etilgan
AutoCAD Release 12	12	12	июнь 1992	DWG R11/12 formati taqdim etilgan
AutoCAD Release 13	13	13	ноябрь 1994	DWG R13 formati taqdim etilgan ; Unix , MS-DOS и Windows 3.11 uchun so`ngi versiya
AutoCAD Release 14	14	14	февраль 1997	DWG R14. formati taqdim etilgan
AutoCAD 2000	15.0	15	март 1999	DWG 2000. formati taqdim etilgan. Ko`p hujjatli interfeys. Uch formatli modellashtirishning yangi imkoniyatlari. Visual Lisp asosida yaratilgan.
AutoCAD 2000i	15.1	16	июль 2000	Windows XP da ishlay oladi.
AutoCAD 2002	15.6	17	июнь 2001	Assosativ o`lchamlar. Matn bva maydonlar bilan ishlash uchun yangi buyruqlar.
AutoCAD 2004	16.0	18	март 2003	DWG 2004. formati taqdim etilgan. Interfeysi Windows XP ko`rinishida. Asboblal palitrasi qo`shilgan.
AutoCAD 2005	16.1	19	март 2004	Jadvallar qo`shilgan
AutoCAD 2006	16.2	20	март 2005	Dinamik bloklar


AutoCAD 2007	17.0	21	март 2006	DWG 2007 formati taqdim etilgan. Uch formatli modellash va vizualizatsiya yangi asboblari.
AutoCAD 2008	17.1	22	март 2007	32- va 64-bit Windows XP va Vista versiyalari uchun birinchi rekiz. Annotativ ob'ektlar qo'shilgan.
AutoCAD 2009	17.2	23	март 2008	Asosiy lentada foydalanuvchi interfeyslari. Action Macros qo'shilgan
AutoCAD 2010	18.0	24	март 2009	DWG 2010 formati taqdim etilgan Windows 7 da ishlay oladi..
AutoCAD 2011	18.1	25	март 2010	Modellashning yangi ustki ko'rinishi. 2010-yilning 15-oktabrida 18 yil davomida birinchi marta OS X) versiya yaratildi.
AutoCAD 2012	18.2	26	март 2011	Dinamik massivlar, Model Documentation
AutoCAD 2013	19.0	27	март 2012	DWG 2013 formati taqdim etilgan. Autodesk 360 assosativ massivlari
AutoCAD 2014	19.1	28	март 2013	Kartografik ma'lumotlar bilan dinamik aloqa (GeoLocation API), JavaScript API
AutoCAD 2015	20.0	29	март 2014	(anti-aliasing) liniyasi, Windows 8.1 da ishlaydi, yangi visual ko'rinish

Jadval-1

AutoCAD tizimini ishga tushirish.


AutoCAD 2007 tizimini ishga tushirishning standart usulida quyidagi amallar ketma – ket bajariladi:

1. Start (Pusk) tugmasi bosiladi (1-rasm).
2. All Programs (Programmi) bo'limiga kiriladi.
3. Autodesk bo'limiga kiriladi.
4. AutoCAD 2007 dasturi tanlanadi.



2 - rasm. AutoCAD 2007 dasturini ishga tushirish

AutoCAD 2007 tizimini yorliq yordamida ham ishga tushirish mumkin. Buning uchun Rabochiy stol menyusidagi AutoCAD 2007 tizimi yorlig'i ustida "Sichqon"cha chap tugmasi ikki marotaba tez-tez bosib yuklanadi. Natijada AutoCAD 2007 dasturning grafik interfeysi (2-rasm) namoyon bo'ladi.



3 - rasm. Dasturning bosh oynasi ya'ni loyihalash muhiti.

Ushbu loyihalash muhitining tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

1. Muharrirlanayotgan chizma (fayl) nomi ko'rsatilgan sarlavha;
2. Asosiy menyu;
3. Asboblarning standart paneli;
4. "Ob'yektning xususiyati" paneli;
5. "Chizish" paneli;
6. "O'zgartirish" paneli;
7. Muloqotlar paneli (buyruqlar satri);
8. Holatlar satri;
9. Asosiy ishchi maydon;
10. Chizmadagi joriy holatni ko'rsatuvchi kursor(sichqoncha) holati.

AutoCAD 2007 tizimini interfeysi rostlanuvchan bo'lib, uning ko'rinish 2-rasmdagidan farq qilishi mumkin.

Foydalanish interfeysi stoli

AutoCAD ning asosiy menyusiga quyidagilar kiradi:

AutoCAD 2007 tizimi interfeysining birinchi satrida  [] sarlavha chiqariladi, bu yerda 'Drawing1' muharrirlanayotgan chizma (fayl) nomi, '.dwg' esa fayl kengaytmasidir.

AutoCAD 2007 tizimi interfeysining ikkinchi satrida iyerarxik menyu satri joylashgan (3-rasm) u quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----




3 - rasm

1. “Файл” – fayllar bilan ishlash menyusi;
2. “Правка” – Windows stolidagi grafik maydon qismlarini taxrir qilish menyusi;
3. “Вид” – Ekran ko’rsatgichlarini boshqarishda kerakli asboblari paneli va boshqa buyruqlarni o’rnatadi;
4. “Вставка” – ilovadagi va tashqi obektlarni bloklarga qo’yishni ta’minlash;
5. “Формат” – rang va chiziq turlari, matn holatini va o’lchamini boshqarish, o’lchamlar birligini o’rnatish, chizma chegaralarini aniqlash kabi buyruqlar menyusi;
6. “Инструменты” – ekranda foydalanishda tizimlarni boshqarish buyruqlari menyusi. Ular yordamida muloqot darchasidan foydalanib, chizma ko’rsatgichini o’rnatish kabi buyruqlar bajariladi;
7. “Чертеж” – turli shakllar chizish va hajmini o’zgartirish kabi buyruqlarni bajaradi;
8. “Размер” – o’lcham ko’rsatgichlarini boshqarish va ularni qo’yish buyruqlari ochiladi;
9. “Модификация” – chizma elementlarini o’zgartirish – chizmani va undagi yozuvlarni tarir qilish buyruqlari ochiladi;
10. “Окно” - bir vaqtda foydalanishda bo’lgan axborotlarni fayldan faylga o’tib ularni ochadi;
11. “Справка” – AutoCAD 2007 dasturi haqida yangi foydalanuvchilar uchun to’liq ma’lumot berilgan.

Standart asboblari paneli.

Standart asboblari paneli asosiy menyu ostida joylashgan (4-rasm). Asboblarning standart panelida ko'p ishlatiladigan menyu buyruqlarining chaqirish uchun maxsus tugmachalar joylashtirilgan.




4 - rasm

1. “Новый” - yangi list ochish buyrug’ tugmasi;
2. “Открыть (Ctrl+O)” – mavjud faylni ochish buyrug’i;
3. “Сохранить (Ctrl+S)” - faylni hotirada saqlash buyrug’i;
4. “Печать (Ctrl+P)” – chizmani qog’ozga chiqarish tugmasi;
5. “Настройки печати”- chizmani chop qilishga tayyorlash;
6. “Публикация”- DWF formatida chop qilish;
7. “Вырезать (Ctrl+X)”- chizmadan belgilab olinganlarni – elementlarni buferga kesib olish;
8. “Копировать в буфер (Ctrl+C)”- tanlab olingan elementlarni buferga nusxasini olish;
9. “Вставить из буфера (Ctrl+V)”- buferdagi nusxani belgilangan o’ringa qo’yish;
10. “Свойства группы”- ob’ekt haqidagi ma’lumotlarni inobatga olish;
11. “Редактор блоков” – bo’limlarni tahrir qilish
12. “Отменить действие”- oxirgi amalni bekor qilish;
13. “Повторить действие”- oxirgi bekor qilingan amalni qayta tiklash;;
14. “Панорама реального времени”- foydalanuvchiga model fazosini-chizmani qulay joyga siljitish;

15. “Приближение реального времени”- ayni vaqtda ko’rinishlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish;
16. “Приближение по окну”- ekran masshtabi;
17. “Предыдущее приближение”- dastlabki masshtabga qaytish;
18. “Свойства (Ctrl+1)”- xossalar;
19. “Центр дизайн- (Ctrl+ 2)”- dizayn – markaz;
20. “Палитры инструментов (Ctrl+3)”- uskunalar palitrasi;
21. “Менеджер набора листов (CTRL+4)” - matn stillari boshqaruvchisi
22. “Менеджер набор разметки”- o’lchamlar stillari;
23. “Быстрые расчет”- chizma kordinatalarini aniqlash;
24. “Помощь”- yordam;

“Слой”- “Свойства” paneli(5-rasm)




5 - rasm

1. “Менеджер свойств слоя”- qatlam xossalari menedjeri;
2. “Создать слой”- ekranda qatlam yaratish;
3. “Сделать слой объекта текущим”-ob’ekt qatlamini joriy qatlamga aylantirish;
4. “Предыдущий слой”- dastlabki (oldingi) qatlam;
5. “Цвета”- tasvirdagi chiziqlarga rang berish;
6. “Типы линий”- tasvirdagi chiziqlarga tip berish;

7. “Толщина линии”- tasvirdagi chiziqlarga yo’g’onlik berish;

V. “Чертеж”- “Chizish” paneli(6-rasm)




6 - rasm

1. “Линия”- chiziq (kesma) chizish tugmasi;
2. “Линия конструкции”- to’g’ri chiziq chizish tugmasi;
3. “Полилиния”- ko’p chiziq chizish tugmasi;
4. “Полигон”- ko’p burchak chizish tugmasi;
5. “Прямоугольник”- to’rtburchak chizish tugmasi;
6. “Дуга”- yoy chizish tugmasi;
7. “Окружность”- doira chizish tugmasi;
8. “Регион”- soha chizish tugmasi;
9. “Сплайн”- egri chiziq chizish tugmasi;
10. “Эллипс”- ellips chizish tugmasi;
11. “Эллипсоидная дуга”- ellipsoid yoy chizish tugmasi;
12. “Вставить блок”- blokni qo’yish tugmasi;
13. “Сделать блок”- blok yaratish tugmasi;
14. “Точка”- nuqta qo’yish tugmasi;

15. “Штрих”- kesin va qirqim yuzalarini shtrixlash tugmasi;
- 16 “Градиент” -
17. “Область”- 3D ob’ektiga soha ochish tugmasi;
- 18 “Таблиц ” - Jadvallar tashkil etish;
19. “Многострочный текст”- ko’p satrli yozuvlar bajarish tugmasi.

“Модификация”- “O’zgartirish” paneli (7-rasm)



7 - rasm

1. “Стереть”- tanlangan ob’ektni o’chirish tugmasi;
2. “Копировать объект”- ob’ektdan nusxa olib ko’chrish tugmasi;
3. “Отражение”- ob’ektga simmetrik tasvir yasash tugmasi;
4. “Сдвиг”- tanlangan ob’ektni siljitish tugmasi;
5. “Массив”- ob’ektning tasvirini ko’paytirib tasvirlash tugmasi;
6. “Переместить”- tanlangan ob’ektni ko’chrish tugmasi;
7. “Вращать”- ob’ektni biror burchakka aylantirish (burash) tugmasi;
8. “Масштаб”- ob’ektning tasvirlarini va o’lchamlarini o’zgartirish tugmasi;
9. “Растяжение”- tanlangan ob’ektni uzaytirish tugmasi;

10. “Обрезка”- ob’ektning ortiqcha qismini kesib tashlash buyrug’ining tugmasi;
11. “Расширение”- tanlangan ob’ektni kengaytirish tugmasi;
12. “Разорвать в точке”- ob’ektni nuqtada uzish tugmasi;
13. “Разорвать”- ob’ektni nuqtalar oralig’ida uzish tugmasi;
14. “Присоединит” -
15. “Фаска”- burchak hosil qilib kesishuvchi chiziqlarning burchagi faskasini olish tugmasi;
16. “Кромка”- ob’ektlardagi burchaklarni aylana yoyi yordamida yumoloqlash tugmasi;
17. “Взорвать(Разорвать)”- ob’ektlarni birlashtiruv qismlarini uzib olib yo’qotish tugmasi.

AutoCAD tizimida buyruqlar berishning 3 ta usulidan foydalanish mumkin:

- iyerarxik menyu tizimi yordamida;
- uskunalar panellari tizimi yordamida;
- buyruqlar satrida buyruq yozish orqali.

Har 3 ta usulda ham natija bir xil bo’ladi. Masalan, chiziq chizish buyrug’ni **\Draw\Line** orqali, yoki **Drawing** uskunalar paneli yordamida, yoki buyruqlar satrida **Line** komandasini berish orqali chiziq chizishni amalga oshirish mumkin.

Klaviatura yordamida ma’lumot kiritish “**Enter**” tugmasini bosish orqali yakunlanadi. Buyruqlar satrida bir yoki bir nechta komandalarni kiritish talab

qilinganda, komandalarni bosh harflari terilib “**Enter**” tugmasini bosiladi. Masalan, masshtablashtirish rejimiga o’tish **Reference** komandasi o’rnida “**R**” va “**Enter**” tugmasini bosish orqali amalgam oshiriladi.

3D Studio Max dasturi



8- rasm

Axborot Kutubxonani dizaynini ushbu dasturlar yordamida yaratish qulay hamda nihayotda aniqlikda ishlay oladi. Ushbu dastur hozirgi vaqtda entirior dizayn hamda extirior dizayn bo’yicha ishlatiladigan eng ommaviy dastur hisoblanadi.

3d studio max bu - 3 o’lchamli grafika dasturi bo’lib, undan turli animatsiyalar ishlashda foydalaniladi. Unda uch o’lchamli filmlarni ishlash, ob’ektlarni yaratish, kooordinatalarni yasash va eng asosiysi uch o’lchamli dunyoga kirib borish imkonini beradi. Hozirda esa bu dastur yanada mukammallashib bormoda. Hozirgi vatda yaratilgan, yaratilayotgan reklama roliklari, multfilmlar va o’quv dasturlari shu dastur asosida yaratilmoqda va “foydalanuvchilar” ga xavola etilmoda. 3ds max ni hozirda eng keng taralgan turlari 3ds max 4, 3ds max 5, 3ds max 7, 3ds max 8, 3ds max 9 nomlari bilan mashhur. Ularning ko’rinishi ham bir-biridan far qiladi.

3DS MAX dasturi tarixi

Bu paketni birinchi versiyasi 3D Studio DOS nomi ostida 1990-yil chiqarilgan. Bu paketni takomillashtirish ishlari bilan Gari Yoston rahbarlik qilgan Yost Group studiyasi shug'ullangan; Autodesk esa birinchi navbatda bu paketni chiqarish bilan shug'ullangan. Aytishlaricha Gari Yost oldingi ish joyini Erik Laynos bilan bo'lib o'tgan kelishuvdan so'ng tark etgan. Erik Laynos o'sha payt Autodesk kompaniyasining yangi loyihalarining rahbari bo'lgan.

Birinchi chiqarilgan 4 ta paket 3D Studio DOS u (1990-94 yillarda) yaratilgan. Keyinchalik paket yana Windows NT nomi ostida chiqdi va 3D Studio MAX (1996-1999-yillar) nomi ostida chiqdi. Yangi versiyalar qaytadan raqamlandi.

2000-2004 –yillarda paket Discreet 3DS Max. 2005-yilda esa Autodesk 3DS MAX markasi nomi ostida chiqarilgan. Hozirgi kundagi nomi **Autodesk 3DS MAX 2014**.

Quyidagi jadvalda **3DS MAX** ning versiyalari ro'yhati ko'rsatilgan:

Versiya	Platforma	Nomi	Chiqqan yili
3D Studio	MS-DOS	THUD	1990
3D Studio 2	MS-DOS		1992
3D Studio 3	MS-DOS		1993
3D Studio 4	MS-DOS		1994
3D Studio MAX 1.0	Windows	Jaguar	1996
3D Studio MAX R2	Windows	Athena	1997
3D Studio MAX R3	Windows	Shiva	1999
Discreet 3dsmax 4	Windows	Magma	2000
Discreet 3dsmax 5	Windows	Luna	2002
Discreet 3dsmax 6	Windows		2003

Discreet 3dsmax 7	Windows	Catalyst	2004
Autodesk 3ds Max 8	Windows	Vesper	2005
Autodesk 3ds Max 9	Windows	Makalu	2006
Autodesk 3ds Max 2008	Windows	Gouda	2007
Autodesk 3ds Max 2009	Windows		2008
Autodesk 3ds Max 2010	Windows		2009
Autodesk 3ds Max 2011	Windows		2010
Autodesk 3ds Max 2012	Windows		2011
Autodesk 3ds Max 2013	Windows		2012
Autodesk 3ds Max 2014	Windows		2013
Autodesk 3ds Max 2015	Windows		2014



9 - rasm

3D Max dasturini tahlili


Bu dasturni ishga tushirish uchun Windows ishchi oynasidagi belgi orqali kiriladi. So'ng quyidagi menyu: ishchi oyna hosil bo'ladi (10-rasm). Bu ishchi oynada: 4 ta ishchi oyna proeksiyalari mavjud.

Perspektive – asosiy ishchi oyna,

Front – tasvirni orqadan ko'rsatuvchi ishchi oyna,


Left – tasvirni chap tomondan ko'rsatuvchi ishchi oyna,

Top – tasvirni yuqoridan ko'rsatuvchi ishchi oyna.



10 - rasm

Bu erda o'zgaruvchilar va buyruqlar umumiy ro'yhati berilgan (11-rasm). File, Edit, Tools, Group, Views, Create, Modifiers, Character, reactor, Animation, Graph Editor, Rendering, Customize, Maxscript, Help. Bosh menyu deyiladi.



11 - rasm

Bosh menyudan keyin uskunalar doskasi joylashgan.

Bu panelda yaratiladigan ob'ektlar va ular bilan ishlasga mo'ljallangan operatorlar joylashgan (12-rasm). Bunda

1. Bajarilgan operatsiyani orqaga qaytarish (Undo).
2. Bajarilgan operatsiyaga qaytish (Redo).
3. Uchinchi: Ob'ektga fizik hodisani bog'lash, yoki tanlash va bog'lash.
4. Tanlangan ob'ektni va bog'lanishni bekor qilish.
5. Space Warps fizik hodisalarni ob'ektlarga bog'lash uchun ishlatiladi.
6. Ob'ektni tanlash
7. Ishchi oynadagi barcha ob'ektlarni nomma-nom tanlash.
8. To'rtburchak, aylana... maydonli tanlash.
9. Tanlash filtri.

Va tanlash harakatlantirish, tanlash aylantirish, tanlash va o'lchovli masshtablash, koordinata sistemasi va bosha operatsiyalarni bajarish uchun uskunalar joylashgan.



12 - rasm

Asosiy ishchi oynani o'ng tomonida esa "Buyruqlar doskasi" joylashgan.


Birinchi qatorda (13-rasm): Yaratish (создать), O'zgartirish (Изменить), Ierarxiya (иерархия), Harakat (Движение), Display (Дисплей), Hizmetlar (Сервис) buyruqlari joylashgan. Ikkinchi qatorda: qaysi buyruq tanlanishiga qarab yaratish operatorlari joylashadi. Masalan: Yaratish operatorining create

paneliga kiramiz. Bunda Standart primitives va unda yaratilishi mumkin bo'lgan ob'ektlar joylashgan. Unda nimalar yaratilishi quyidagi rasmda keltirilgan.




13 - rasm

Ob'ekt tayyor bo'lgandan so'ng uni xayotiy ob'ektlarga o'xshatish uchun unga material berish kerak bo'ladi. Huddi shu vazifani bajarish uchun Material Editor dan foydalaniladi (14-rasm). Material Editor ni ishchi oynaga chiarish uchun “M” tugmasini bosish lozim bo'ladi. “M” tugmasi bosilgandan so'ng ishchi oynada uyidagi rasm hosil bo'ladi.



14-rasm.

Bunda yasalgan ob’ektga materialni bog’lash uchun bo’sh material tanlanadi va “Standard” ga kiriladi. Bunda quyidagi rasm hosil bo’ladi.



15-rasm.

Bu “Material/Map Browser” deb nomlanadi. Bunda “New” belgilangan bo’ladi. Bu belgini “Mtl Library” ga o’tkazamiz. Bu oynada materiallar o’z nomlari bilan ko’rsatiladi. Va kerakli materialni tanlashimiz, tanlaganimizdan so’ng, uni ob’ektga surib borib bog’lashimiz mumkin. Material Editor da asosiy materiallar va ularni yana ham o’zgartirish mumkin bo’lgan funksiyalari joylashgan.

Bunda foydalanuvchi o’ziga kerakli bo’lgan materialni tayyorlab olishi va o’z yaratgan ob’ektga bog’lashi mumkin.

Tayyorlangan ob’ektni harakatlantirib undan biror-bir rolik yaratishda albatta vat bilan hisoblashishga to’g’ri keladi. Vatni cho’zish yoki qisartirish uchun Time Configuration ga murojat qilinadi (17-rasm). Time Configuration da

Time Configuration

Frame Rate

- ☒ NTSC ☐ Film
- ☐ PAL ☐ Custom
- FPS: 30

Time Display

- ☒ Frames
- ☐ SMPTE
- ☐ FRAME:TICKS
- ☐ MM:SS:TICKS

Playback

- ☒ Real Time ☒ Active Viewport Only ☒ Loop
- Speed: ☐ 1/4x ☐ 1/2x ☒ 1x ☐ 2x ☐ 4x
- Direction: ☒ Forward ☐ Reverse ☐ Ping-Pong

Animation

Start Time: 0 Length: 100

End Time: 100 Frame Count: 101

Re-scale Time Current Time: 68

Key Steps

- ☒ Use TrackBar
- ☒ Selected Objects Only ☒ Use Current Transform
- ☒ Position ☒ Rotation ☒ Scale

Standard Primitives

Object Type

AutoGrid ☐

Box Cone

Sphere GeoSphere

Cylinder Tube

Torus Pyramid

Teapot Plane

Name and Color


68 / 100

Y: Z: Grid = 10.0 Add Time Tag

Auto Key Selected Key Filters...


Set Key 68

Ob'ektni harakatlantirish uchun quyidagi rasmdan “auto key” bosiladi (17-rasm) va kerakli kadr tanlanib (0-100) , ob’ekt harakatga keltiriladi. Agar ishchi oynada bir necha ob’ektlarni harakatlantirish lozim bo’lsa va ularni harakatlantirish har xil bo’lsa kerakli ob’ektni harakatini cheklash uchun “set key” bosiladi va “Kalit” tugmasi bosiladi. Bu bilan shu ob’ektga kalit beriladi.




37

Tayyor bo'lgan ob'ektni harakatlantirib, unga kerakli bo'lgan barcha ishlarni bajarib bo'lgandan keyin uni "rolik" ko'rinishida saqlash uchun "Render" qilish kerak (18 - rasm). Bosh Menyuda joylashgan Rendering bosiladi va undan Video Post... tanlanib bosiladi. Render ning asosiy vazifasi, tayyor bo'lgan rasmlarni tez suratga olishdir. Bu quyidagi rasmda keltirilgan.




18-rasm.

Video Post ga kirgandan so'ng birinchi bo'lib Add Scene Event tugmasi bosiladi (19-rasm). Undan qaysi ishchi oyna (perspective, top front, left) ni yoki, qaysi kamerani suratga olish lozimligi tanlanadi. Va yana kerakli amallar bajariladi. So'ngra OK tugmasi bosiladi.




19-rasm.

Add Scene Event tugmasidan keyin Add Image Filter Event tugmasi bosiladi (20-rasm). Bunda suratga olishning o'ziga xos usullari ko'rsatilgan Contrast, Focus, glow shular jumlasidandir.




20-rasm.

Add Image Filter Event dan so'ng Add Image Output Event tugmasi bosiladi (21-rasm). Bu erda suratga olinayotgan rolikni qaerga saqlash lozimligi ko'rsatiladi. Ya'ni Add Image Output Event da Files tugmasi bosiladi. Rolikni saqlanishi lozim bo'lgan joy ko'rsatiladi. So'ngra Fayl nomi va rolikni saqlanish formati ko'rsatiladi(avi.) va SAVE tugmasi bosiladi.



21-rasm.

Nihoyat hamma ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng Execute Video Post tugmasi bosiladi va rolikni qaysi o'lchamda suratga olish ko'rsatiladi, Pixel Aspect qiymati kiritiladi. Va Render tugmasi bosiladi (22-rasm). Bu tugma bosilgandan so'ng ishchi oynada suratga olish ishlari boshlanadi.



22-rasm.

Uch o'lchovli grafik dasturda yaratilgan ob'ektlar ko'rinishlari nihoyatda go'zal ko'rinishda bo'ladi.

1.2 Axborot kutubxonalari jixozlanishiga talablar

Zamonaviy axborot kutubxona binolarini qurish va ularni jixozlash o'ta muhim masala hisoblanadi. Birinchidan, kutubxona dizayni zamon talablariga mos bo'lishi kerak bo'lsa, ikkinchidan kutubxonadagi jixozlash joylashuvi kitobxonlar uchun noqulayliklar tug'durmasligi kerak.

Qoidaga ko'ra kutubxonalardagi jixozlar ko'chirilishi mumkin o'lgan jixozlardan iborat bo'lishi kerak, agar biror jixoz bino devorlarga joylashtiriladigan bo'lsa, faqatgina tashqi qismlari bino devorlariga bog'langan bo'lishi kerak oki binodan tezda ajratib olish imkoniga ega bo'ishi kerak. Quyida kutubxona taminlanishi kerak bo'lgan uch kategoriyadagi jixozlar keltirilgan: arxiv hamda administrativ jixozlar, idora ishlari uchun ishlatiladigan jixozlar, saqlash xonalari

uchun maxsus jixozlar. Yuqorida keltirilgan kategoriyalar uchun foydalaniladigan jixozlarning barchasi yangi bo'lishi talab qilinadi.

- Arxiv yoki administrativ jixozlar kutubxonaning arxiv, muzey, jamoa uchun yoki ta'lim maqsadlarida foydalaniladigan hamda ushbu dasturlarni administrative foydalanish mumkin bo'lgan jixozlar kiradi. Ushbu vositalar ta'minlanishi shart, ammo hajmlari ham binoga moslashuviga mos bo'lishi kerak.
- Idoraviy ishlar uchun ishlatiladigan jixozlar (barcha turdagi mebellar) ta'minlanishi shartisoblanadi, ammo xona xududlarini dastlabki aniqlashda hisobga olinmaydi. Talab qilingan idoraviy jihozlarning hususiyatlari uning xonada qanday joylashirilishiga bog'liq bo'ladi. Kutubxona xonalarini jixozlash hamda mebellashtirish mijoz talablariga mos bo'lishi kerak.
- Saqlash xonalari ishonchli bo'lishi kerak va ularda qog'oz hamda boshqa turdagi arxiv ma'lumotlarni va materiallarni saqlash samarali bo'lishi kerak. Kitoblarni javonda saqlash sifatini ta'minlashda jixozlar narxi e'tiborga olinmasligi kerak.

Mebellarga qo'yiladigan talablar:

- Mebellarning o'zidan issiqlik yoki hiq chiqarish darajasi: xonalarga joylashtirilgan jixozlar va mebellarning o'zidan gaz chiqarish darajasi uchuvchi organic gaz chiqarish (UOGCh, inglizchada Volatile organic outgassing - VOC) ko'rsatkichlarning eng quyi darajasida tanlanishi kerak. Xar bir mebel yoki jixoz uchun UOGCh ning maksimum darajasi har bir metr kubga 0.50 milligram bo'lishi kerak. Umuman olganda, ushbu talabning qo'yilishi kutubxonalarda xar xil kimyoviy vositalardan tayyorlangan buyumlardan ko'ra tabiiy yog'ochdan tayyorlangan mebellardan foydalanish kerakligini bildiradi. Shuningdek, agar mebellar bilan ta'minlovchi korxona vakillari kimyoviy vositalardan tayyorlangan mebellarning UOGCh darajasini past ekanligini va uni amaliy jihatdan zararsiz ekanligini sbotlab bera olsalar bemalol bu turdag mebellardan foydalanish

mumkin. Bundan tashqari, kutubxonaning ba'zi qismlarida metallardan yasalgan jihozlardan foydalanish ham samarali hisoblanadi.

- Mebel va jixozlarning yong'inga moyillik darajasini aniqlash. Kutubxonalarda ishlatiladigan jixoz va mebellarning yon'ginga chidamlilik darajasi ham yuqori darajada bo'lishi kerak. Muzey qismlari, kitoblarni saqlash qismlaridagi mebellarning yong'inga moyillik darajasi ASTM E-84-95b testlash standartining 25 shkalasidan, tutun chiqarish darajasi esa 45 shkaladan oshib ketmasligi kerak. Xona devorlari qoplamalarining yo'nish xarakteristikalarini NFPA 701 standartiga mos bo'lishi shart.

Yuqorida kutubxonaning jixozlanishi bo'yicha uch sinfga ajratib chiqqan edik. Quyida har bir sinfga tegishli bo'lgan jixozlarni alohida ko'rib chiqamiz.

Arxiv yoki administrativ jixozlar

- Telefon tarmoqlari. Telefon tarmoqlari har bir xonalarda va ish o'rinlarida, ilmiy izlanish xonalari, proyeksiya xonalari, har bir saqlash bo'limlari va dam olish kabi barcha turdagi xonalarda ta'minlangan bo'lish kerak.
- Kompyuterlar. Kutubxonalarda kompyuterlardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: xavfsizlikni ta'minlash, o'quv bo'limlari, avtomatlashtirish bo'limlari, elektron kutubxona yoki kataloglashtirish bo'limida.
- Audiovisual vositalar. Kutubxonalarda audiovisual vositalar yetarlicha ta'minlangan bo'lishi shart. Kutubxona moddiy xolati, vazifasiga qarab quyidagi audiovisual vositalardan foydalanish mumkin: DVD playerlari, DVD recorderlar, raqamli kameralar, CD/DVD disklarga ma'lumot yozuvchi kompyuterlar, professional darajadagi skanerlar, printerlar, oddiy va HD monitorlar, videoprojektorlar kabilar.

I-bob bo'yicha xulosa


I-bobga oid xulosalar shundan iboratki, mamlakatimiz axborot-kutubxona muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar zamon talablarini, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning sifat va samarasini oishirish talablarini hisobga olib yaratilgani ma'qul. Shuning uchun biz mavjud muommolarni tahlil qilish bilan birga, kelgusida yaratoyotgan Web saytimizni ishlatishning qulayligiga ehtiborni qaratdik. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchi bob yakunida ARM dazaynlarini va Web saytlarini yaratadigan dasturlarni tahlil qilib, bobning ikkinchi qismida ularning birida ARM va AKM dizayn ko'rinishlarini yaratishda 3d max uch o'lchovli grafik dasturning ishlatish tartiblari tushuntirilib berib, ularni loyihalashtirishda AutoCAD dasturidan foydalanish to'g'risida tushuncha berib berib o'tildi.

Hozirgi kun talablaridan kelib chiqib, jahon kutubxonalaridagi erishilgan yutuqlardan keraglisini o'zimizga olish va o'zimizda uchrayotgan bir qancha muommolarni bartaraf qilish maqsadida to'la ma'lumotlar bazasini yartdik va u juda ko'plab qulayliklarni o'z ichiga oladi va biz shu vazifani bajarish uchun harakat qildik.

II – BOB. AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNIGA OID WEB SAYTNING TASHKILIY VA FUNKSIONAL TUZILMASI

2.1. Elektron kutubxona dizayniga oid web saytning tashkiliy va funksional tuzilmasi


Tashkiliy tuzilma (ingliz. *Organizational structure*) — usullar majmui bo‘lib, daslab ish jarayoni alohida ish qismlariga ajratiladi, so‘ngra masalani yechish maqsadida harakatlar muvofiqlashtiriladi. Umuman olganda tashkiliy tuzilma tashkilot ichida mas’uliyatni va vakolatni taqsimlashni aniqlaydi. Odatda tashkiliy tuzilma organigarammalar (ingliz. *organigram*) ko‘rinishida aks etib grafikli sxemalar, ierarxik ravishda tashkillashtirilgan birliklardan (bo‘limlar, lavozim pozitsiyalari) iborat bo‘ladi.



2.1 – rasm. Web saytning tashkiliy strukturasi


Funksional tashkiliy tuzilma – tashkilot ichida funksiyalarni taqsimlash tamoyili asosida quriladi. Bunday holda funksiyalarni boshqarishga mo‘ljallangan bo‘limlar to‘g‘ridan to‘g‘ri tashkil qilinadi. Boshqaruvning bunday tashkil qilinishi rahbar ishini ancha yengillashtiradi. Rahbarning o‘rinbosarlari mavjud bo‘ladi va rahbar o‘rinbosarlar orqali korxonani boshqaradi. Funksional tuzilma odatda an‘anaviy yoki klassik degan nom bilan yuritiladi, chunki u juda ko‘p yillardan beri ishlatilib kelinmoqda. Funksional tuzilma va uning xususiyatlari yetarli darajada tadqiq qilingan.

Web sayt administratori vazifalarining funksional tuzilmasi



2.2 – rasm. Administrator vazifalarining funksional tuzilmasi

Web sayt foydalanuvchilari vazifalarining funksional tuzilmasi




3.3 – rasm. Foydalanuvchilar vazifalarining funksional tuzilmasi

2.2 Web saytdan ma'lumotlar kiritish hamda qidirish algoritmlari


Bobning ushbu bo'limida axborot kutubxona dizayniga oid elektron kutubxona ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritish hamda ma'lumotlar bazasidan ma'lum axborotlarni izlash algoritmlarini ko'rib chiqamiz.

Bizga ma'lumki, web saytlar ma'lumotlar bazalaridan foydalanish huquqi chegaralangan hisoblanadi. Odatga ko'ra ma'lumotlarni bazasini faqatgina web sayt administratori boshqarishi, unga ma'lumotlar kiritishi, ma'lumotlar bazasidagi biror qiymatlarni o'zgartirishi, biror ortiqcha ma'lumotni o'chirib tashlashi mumkin. Bundan tashqari web saytlar yaratish tizimlarida web sayt administrator tushunchasidan tashqari moderator tushunchasi ham mavjud bo'lib, ushbu soha vakili faqatgina saytga ma'lumot qo'shish, o'zgartirish yoki o'chirish huquqiga ega

hisoblanadi. Uning bajaradigan ishlari ko'лами administrator va sayt foydalanuvchilari o'rtasida bo'ladi, ya'ni administrator web saytning to'liq interfeysi, kontenti, bo'limlariga javob bersa, moderator faqatgina foydalanuvchilar o'qishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar, yangiliklarni saytga joylashtirib turadi.



3.4 rasm. Web saytga ma'lumotlarni kiritish algoritmi



3.5 - rasm. Saytdan ma'lumotlarni qidirish algoritmi

2-bob bo'yicha xulosa

BMI ning ikkinchi bobi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:


- Elektron kutubxonalar ishlashining tashkiliy hamda funksional tuzulmalari ishlab chiqildi;
- Elektron kutubxona web saytiga ma'lumotlarni kiritish algoritmi tahlil qilindi;
- Elektron kutubxona ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlarni qidirish algoritmi ishlab chiqildi.

3-bob. AXBOROT KUTUBXONA DIZAYNIGA OID WEB SAYT ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI

3.1. Web sayt uchun ma'lumotlar bazasi yaratish

Ushbu bobda biz web saytni yaratish jarayonlarini ketma – ket yoritib boramiz. Yaratilayotgan web saytni 2 bobda ishlab chiqilgan tashkiliy va funksional tuzilmalardan foydalanamiz.


Dasturiy kompleks web saytni yaratish uchun biz denwer dasturining ishga tushiruvchi fayli yordamida Web server Apache, PHP, MySQL dasturlari ishga tushiriamiz (3.1 - rasm).




3.1 – rasm. Denwerni ishga tushirish

So'ngra birorta brouzer ishga tushiriladi. Bizning misolda Google chrome brouzeri foydalanilgan. Manzillar paneliga veb serverimiz ishlayotganligini bilish uchun <http://localhost> deb yozamiz va quyidagi oynaga ega bo'lamiz.

Biz ushbu web saytni yaratishda Joomla frameworkidan foydalanamiz. Sababi, ushbu frameworkda sayt yaratish uchun kerak bo'lgan barhca panellar avvaldan yaratilgan bo'ladi. Quyidagi 3.2 va 3.3 rasmlarda biz, Joomla'ni o'rnatish ketma-ketligini ko'rsatib o'tamiz.



3.2 rasm. Joomlani oʻrnatish bosqichlari



3.3 rasm. Foydalanuvchi va MB ni bogʻlash

Internet tarmogʻida foydalanuvchilarga tarmoq resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatini berish uchun WEB serverlar quriladi. Bunday serverlarda


Internetda taqdim etilgan axborotning katta qismi jamlanadi. Foydalanuvchining ixtiyoriy axborotni olish tezligi bunday serverlarni qanday qurishga bog'liq.

Web browser — inglizcha so'z bo'lib, “vebni ko'zdan kechiruvchi”, “vebni ko'rib chiquvchi” ma'nolarini beradi. Bizga bu so'z rus tilidan kirib kelganligi, rus tilida esa “бразер” kabi aytilishini hisobga olib(hozircha) biz ham “brauzer” so'zini ishlatadik.“Web” so'zi esa “World Wide Web”(butunjahon o'rgimchak to'ri — WWW) ning qisqa ma'nodagi ko'rinishi.

Veb browser veb-sahifani(butunjahon to'rida joylashgan sahifa) siz uchun qulay ko'rinishda chop etadi — ma'lum qoidalar bo'yicha rasmlarni, matnlarni(ularning ko'rinishi, rangi, kattaligi va h.k.), ovoz yoki video ma'lumotlarini, turli animatsiyalarni mos tavishda joylashtirib chiqadi. Bundan tashqari, sahifadagi siz kiritgan ma'lumotlarni kerak joyga jo'natish, boshqa sahifaga o'tish, JavaScript kodlarini ishlatish kabi vazifalarni ham bajaradi.


WEB-texnologiyasining hozirgi kunda browserlar deb ataladigan axborotni ko'rish uchun mo'ljallangan o'ndan ortiq turli vositalar mavjud. Browser web-sahifalarni ko'rish dasturi hisoblanadi. Bunda browserga yuklangan veb sahifadagi Giperbog'lanishga sichqoncha ko'rsatkichi bilan bosilsa, avtomatik ravishga ushbu bog'lanishda ko'rsatilgan sahifa browserga yuklanadi. Bunday hollar hech qanday sahifaning manzilini kiritish shart emas, chunki giperbog'lanish barcha kerakli ma'lumotga ega hisoblanadi. Browser web-sahifada HTML teglarini topib, ular talabi bo'yicha ma'lumotni ekranga chiqaradi. Teglarining o'zi esa ekranda aks ettirilmaydi.

Endigi qadamda biz eng asosiy jarayonni boshlaymiz, ya'ni MB ni yaratamiz. Buning uchun biz *MySQL* dan foydalanamiz. Dastlab yaratilayotgan dasturiy kompleks uchun alohida MB yaratib olamiz (3.4 - rasm).



3.4 – rasm. Dasturiy kompleks MB ni yaratish

MB ni yaratib olinganidan keyin asosiy qilinadigan ishi we saytga materaillarini joylashtirish uchun jadvallar yaratib olishimiz kerak, bunda biz saytga joylashtirilishi zarur bo'lgan jadvallarni yaratib chiqamiz (3.5 - rasm).




3.5 – rasm: MB jadvallarini yaratish.

Demak, web sayt uchun kerakli bo'lgan MB ni va jadvallar uchun elementlar qiymatlarini saqlash uchun jadvalni yaratdik, jadvallarga ma'lumotlarni kiritib bo'ldik. Keyingi bo'limda esa dastlab sayt kontentini yaratiz va undan keyin jadvallarga ma'lumot kiritib, ma'lumotlarni web sahifaga yuklaymiz.

3.2 Dasturiy kompleksni yaratish, ishga tushirish va undan foydalanish

Ushbu bo'limda qiladigan dastlabki ishimiz, web saytining har bir sahifasini va uning dizayni uchun kerak bo'ladigan css kodlarini yaratib olamiz.


Web sahifalarni yaratish va MB ga ma'lumotlarni joylashtirish uchun Joomla'ning "Менеджер материалов" modulidan foydalanamiz.



№	Заголовок	Опубликовано	На главной	Сортировка	Доступ	Раздел	Категория	Автор	Дата	Хиты	ID
1	Kutubxona Loyxasiga Talablar			1	Всем			Administrator	17.06.14	29	1
2	Ostona Milliy Kutubxonasi			1	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	5	25
3	Baghdad Library			2	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	5	24
4	Vennesla Library and Cultural Centre			3	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	4	23
5	University Library of the University of Amsterdam			4	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	2	22
6	The Robert and Yadelle Sklare Family Library			5	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	0	21
7	The Horse on the Ceiling			6	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	15	20
8	Tama Art University Library			7	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	0	19
9	Taitai Public Library			8	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	1	18
10	Regional Library and Knowledge Centre			9	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	1	17
11	Quebec church Library			10	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	0	16
12	O'zFAAK			11	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	11	15
13	National Technical Library in Prague			12	Всем	Kutubxonalar	Loyxalar	Administrator	18.06.14	3	14


3.6 - rasm .Materiallar tayyorlash oynasi

Dastlab xar bir sahifa uchun, word matn muharriririda materiallarni tayyorlab olamiz. Materiallarni boshqarish oynasi orqali har bir sahifa uchun kerakli bo'lgan nomlanishni berib olamiz va materialni yaratamiz. Undan keyin materialning matnini joylashtirib chiqamiz (3.7 - rasm).




3.7 – rasm. Matnlarni joylashtirish

Demak, sahifalar uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib chiqdik, endigi bosqichda, yaratlgan sahifalarni web sayt menyusi bilan bog'lab chiqamiz. Buning uchun biz, menu moduliga (пункт меню) kiramiz va u yerdan bosh sahifa uchun kerakli bo'lgan materiallarni joylashtiramiz (3.8 - rasm).




3.8 – rasm. Menyuga sahifalarni birlashtirish

Demak, saytimiz deyarli tayyor holatga keldi. Endigi qiladigan ishimiz, soʻnngi bosqich hisoblanib, ushbu bosqichda Ignite Gallery rasmlar menejerini shabloni hamda modulini oʻrnatishi va unga har bir sahifa uchun rasmlarni yuklash jarayonini bajaramiz. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, Ignite Gallery ikki qismdan iborat: shablon qismi hamda modul qismi. Shablon qismi bi Ignite Galleryning umumiy koʻrinishi uchun javob beradigan flash dasturida yaratilgan qismi hisoblanadi. Bu qismning asosiy vazifasi sahifaga yuklangan rasmlarni mahsus interfeysda ochib berish hisoblanadi. Modul qismi esa, har bir sahifa uchun rasmlarni yuklash va ularni boshqarish, oʻchirish hisoblanadi.




3.10 – rasm. Ignite Gallery da ishlash



3. 11 – rasm. Saytning umumiy ko'rinishi

Quyidagi rasmda, saytning qidiruv tizimi keltirilgan (3.12 - rasm).



3.12 – rasm. Qidiruv tizimi

3 bob bo'yicha hulosa

Ushbu bob bo'yicha xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi kunga kelib bir qancha dastur tillari mavjud bo'lib biz foydalangan dasturlar qo'yidagilar PHP, MySQL, HTML elementlaridan foydalanildi.

Bobda dastlab web sayt ma'lumotlar bazasi ishlab chiqildi, so'ngra har bir sahifa uchun content qismi yaratilib, har bir sahifa bosh menyuga bog'lab chiqildi. Bundan tashqari, saytda Ignite Gallery rasmlarni ochish muhiti hamda qidiruv tizimlaridan foydalanildi.

IV-BOB. HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI

Asosiy tushunchalar

Fan-texnika taraqqiyoti insonning mehnat faoliyatida talay qulayliklarni yaratish bilan birga inson hayoti uchun zararli bo'lgan ba'zi bir omillarni kelib chiqishiga ham olib keldi. Sanoatda elektr quvvatidan keng foydalanish yo'lga qo'yildi. Hozirgi paytda har qanday elektr qurilma elektr toki bilan ishlaydi. SHu sababli elektr toki ta'sirida ro'y berishi mumkin bo'lgan baxtsiz xodisalar va ulardan saqlanish muhim masalalar qatoriga kiradi. Elektr tokining eng xavfli tomoni shundaki, bu xavfni oldinroq sezish imkoni yo'q. SHuning uchun ham elektr toki xavfiga qarshi tashkiliy va texnik chora tadbirlarni belgilash, to'siq vositalari bilan ta'minlash, shaxsiy va jamoa tizimlarini o'rnatish nihoyatda muhim.

Umuman, elektr toki ta'siri faqat biologik ta'siri bilan chegaralanib qolmasdan, balki elektr yoyi, magnit maydoni hamda statik elektr ta'sirlar ham bo'lib, ularni bilish har bir kishi uchun kerakli va zaruriy ma'lumotlar jumlasiga kiradi. Hozirgi vaqtda radio va elektron qurilmalarning rvdio telemetriya, radionavigatsiya va boshqa elektromagnit tebranishlarga asoslangan apparatlarning keng qo'llanishi, ko'pchilik kishilarning radioapparatlar, uyali telefonlar va kompyuterlardan foydalanishi elektromagnit tebranish to'lqinlaridan muxofazalanish chora-tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Axborot kutubxona dizaynlarini takomillashtirish maqsadida Web sahifa yaratishda dasturchi quyidagi xavfli va zararli omillar ta'sirida bo'ladi:

Omillar:

1. Manitorning elektromagnit nurlanishlari.
2. Ekranda statik elektr razryadning hosil bo'lishi.
3. Ul'trabinafsha nurlanishlar.
4. Infraqizil nurlanishlar.
5. Rentgen nurlari.
6. YOrug'lik tasvirining yorqinligi.

7. YOrug'lik oqimining lippillash darajasi.
8. Ko'rish maydonida yorqinlikning notekis taqsimlanganligi.
9. To'g'ridan-to'g'ri yaltirash darajasining yuqoriligi.
10. YOritilganlik darajasining yuqori yoki pastligi.
11. Havodagi chang zarrachalari.
12. Havoning ionlanishi darajasining o'zgarishi.
13. Havo namligining o'zgarishi.
14. Ish zonasida havo oqimining o'zgarishi.

Kimyo omillar: Havo tarkibidagi: uglerodlar oksid, ozon, ammiak, formaldegid, polixlorli bifenillarning hosil bo'lishi.

Psixofiziologik va mikrobiologik omillar:

1. Diqqat va ko'rishining zo'riqishi.
2. Zukkolik va hissiyotning zo'riqishi.
3. Uzoq davom etuvchi muvozanatli zo'riqish.
4. Ish jarayonining bir xilligi.
5. Vaqt birligida ishlab chiqiladigan axborot xajmining ko'pligi.
6. Ish joylarining noto'g'ri tashkil qilinishi.
7. Havodagi mikroorganizmlar miqdorining yuqoriligi.

4.1. Harakat faolligini inson sog'ligi va faoliyatiga ta'siri

Zamonaviy dunyoda maishiy texnikani rivojlanishi, har xil korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirilishi, mexanizatsiyalashtirilishi, komp'yuterlashtirilishi, jamoat va shaxsiy transportidan keng foydalanish ko'pchilik odamlarda kam harakatli turmush tarzini oshishiga sabab bo'lib, insonning harakatlanish faolligini kamaytiradi. Kam harakatli turmush tarzi harakat faolligini kamayishi yoki gipokineziya hisoblanadi. Maktab yoshidagi gipokineziya bolani kundalik mehnat va dam olish tartibini ratsional tashkil etilmaganligi, kunlik topshiriqlarni ortiqchaligi bilan bog'liq va buning natijasida

bolani sayr qilishga kam vaqti qoladi. Gipokineziya talabalar muhitiga ham xarakterli holatdir. Qator hollarda gipokineziyani bir joyda yotishni talab qiladigan kasalliklar ham keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda organizmdagi barcha muskullarda yuklama kamayadi. Texnik taraqqiyot bir tomondan hayotni bir muncha engillashtirsada ikkinchi tomondan organizmga etarlicha zarar ham etkazadi. U mo‘shaklarni och qolishiga sharoit yaratadi, atrof-muhitni zararli ta’siriga organizm qarshiligini pasayishini tezlatadi. YOsh o‘tishi bilan bu holat chuqurlashib boradi va inson organizmini emiradi. Ko‘pgina davlatlarning olimlari olib borgan tadqiqotlar natijasida harakatlanish faolligining etarli bo‘lmasligi yurak-qon tomirlari kasalligini paydo bo‘lishida asosiy omil bo‘ladi. Ko‘pgina mamlakatlarning olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kam harakat qiladigan 40 yoshdan oshgan odamlarni gipertonik va ateroskleroz kasalliklariga chalinishi 2 baravar ko‘p bo‘lishini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 80 % aholi jismoniy yuklama etarli bo‘lmagan turmush tarzini kechiradi.

Zamonaviy dunyoda bu salbiy holatga qarshi samarali kurashishi vositasi istalgan jismoniy mashq turi bilan sistematik shug‘ullanish, toza havoda hech qanday maxsus sharoit talab etmaydigan yugurish va yurish hisoblanadi.

YUrishda insonning 50 dan ortiq muskullarini ishga tushishi tadqiqotlar orqali aniqlangan. SHu bilan birga yurish bilan doimiy shug‘ullanish yurak-qon tomirlari, nafas olish sistemasini mashq qildirib, ularga yaxshi ta’sir etadi, organizmda modda almashinuvini yaxshilaydi, semirishni oldini oladi. Bundan tashqari yurish davomiyligini asta-sekin oshirib borish yurakda qon aylanishini yaxshilanishiga yordam beradi. YUrish vaqtida oyoq harakati nasos mexanizmiga o‘xshab ishlaydi va nafaqat oyoqda balki, butun organimzda qon aylanishini yaxshilanishiga olib keladi. Faoliyat davrida harakatni etarli bo‘lmasligi bilan bog‘liq holda muskullarni faoliyatini etarli bo‘lmasligi organizm holatiga birdan ta’sir etadi. Gipokineziya va gipodinamiyalarning xavfliligi uchun kasallarga ham uzoq vaqt krovatda harakatsiz yotishga ruxsat berilmaydi. Harakat faolligini etarli

bo'lmisligi yurak-qon tomir va asab sistemalarining kompensator qobiliyatiga birinchi o'rinda salbiy ta'sir etadi. Ish joyida kun bo'yi oyoqda tik turib ishlovchilarda harakat faolsizligi kuzatiladi. Stanok oldida kun bo'yi bir holatda ishlash oyoqda qon aylanishini yomonlashtiradi va bu vena qon tomirini kengayishi va teri ostidan ko'karib qolishi bilan amalga oshadi. Doimiy oyoqda tik turib ishlashda vaqti soati kelib mushaklar qayishqoqligi yo'qotilib, to'qimalar harakatlanuvchanligini kamaytiradi. Turib ishlashdan o'tirib ishlash organizmga ancha engillik tug'diradi. Bunda tayanch maydoni oshadi, oyoq muskullariga statik yuk tushmaydi, yurak-qon tomirlari sistemasi ishini engillashtiradi. Ammo o'tirib ishlashda harakat faolligining kamayganligi bois ma'lum darajada organizmda gipokineziya va gipodinamiya kuzatilishi tufayli o'zining salbiy tomonlariga ham egadir.

Gipodinamiya va gipokineziyaga qarshi kurashning eng yaxshi vositalari jismoniy mashq yoki jismoniy tarbiya bilan kompleks shug'ullanish hisoblanadi.

4.2. Favqulodda holatlar haqida tushuncha

Favqulodda holat (FH) – bu qisqa muddatda sodir bo'ladigan, insonlarga, tabiiy muhitga va moddiy boyliklarga katta darajadagi zarar etkazadigan voqealardir. Hayot faoliyat xavfsizligi nuqtai nazaridan favqulodda holatlarni keng ma'noda, ya'ni xavfning amalda sodir bo'lishi va insonlar sog'ligi hamda hayotiga tahdid solishi deb tushunish mumkin.

FX larga katta avariylar, katastrofalar va baxtsiz hodisalarni misol qilib keltirish mumkin.

Avariya – texnik sistemada sodir bo'lib insonlar halok bo'lmagan, texnik vositalarni tiklash mumkin yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan voqealarni misol qilib keltirish mumkin.

Katastrofalar – texnik sistemalarda sodir bo'lib, insonlarning halok bo'lishiga yoki izziz yo'qolishiga sabab bo'ladigan hodisalardir.

Baxtsiz hodisalar – erdagi yuz beradigan FV lar bilan bog‘liq bo‘lib biosferani, texnosferalarni buzilishiga, insonlarni halok bo‘lishi yoki sog‘ligini yo‘qolishiga sabab bo‘ladigan holatlardir.

Favqulodda faziylatlar (FV) – bu ob‘ekt va hudud yoki akvatoriyalarni FH dan keyingi holati bo‘lib, bunda odamlarni hayoti va sog‘ligiga tahdid soluvchi, aholi va iqtisodga moddiy zarar etkazilgan, tabiiy muhit buzilgan holatdir.

Ma‘lumki, favqulodda holatlar o‘ziga xos xususiyatlar va aniqlanishlarga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar asosida favqulodda holatlarni ta‘riflash mumkin bo‘ladi. YUqorida ta‘kidlanganidek, insonning har qanday faoliyatida patensial xavf mavjud bo‘ladi.

Patensial xavf - bu yashirin kuchdir. Bu kuch amalga oshishi uchun, qandaydir sharoit yuzaga kelishi lozim. Patensial xavfni reallikka olib keluvchi sharoit, baxtsiz hodisalarning sabablari deb tushuniladi. Sabablar ma‘lum yoki noma‘lum ko‘rinishda bo‘lishi va ular har doim ham mavjud bo‘lmasligi mumkin. SHaxsga tahdid soluvchi xavflar dunyosi juda keng va u tinimsiz o‘tib boradi. Ishlab chiqarishda, shaharda, maishiy sharoitda insonga bir vaqtda bir necha noxush omillar ta‘sir qiladi. Ma‘lum vaqtda ta‘sir etuvchi zararli xavflar majmui «inson-atrof muhit» sistemasining joriy holatiga bog‘liq bo‘ladi. Barcha xavflar qator belgilari bo‘yicha klassifikatsiyalanadi (4.1.-jadval).

Favqulodda holatlarga olib keluvchi barcha sabablarni va ularni identifikatsiyalashni puxta bilish, favqulodda holatlarni oldini olishning asosi hisoblanadi. SHu jihatdan sabablarni favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi mexanizm deb ham tushunish mumkin. SHunday qilib, ma‘lum va noma‘lum sabablar natijasida patensial xavf yuzaga keladi va inson uchun turli xil kungi lsiz hamda oxir oqibatlariga olib keluvchi favqulodda hodisalar (o‘lim va kasallanishlar, moddiy zararlar va boshqalar) sodir bo‘ladi.

Favqulodda holatlar muammosi juda keng ko‘lamli bo‘lib, quyida uning hayot faoliyat xavfsizligi fani bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xavflar klassifikatsiyasi

№	Belgilar klassifikatsiyasi	Ko‘rinishlar (sinflar)
1.	Xavf manbalarining ko‘rinishi bo‘yicha	Tabiiy Antropogen Texnogen
2.	Hayot fazosidagi oqimlar ko‘rinishi bo‘yicha	Energetik Ko‘psonli Informatsion
3.	Hayot fazosidagi oqimlar o‘lchami bo‘yicha	Ruxsat etiladigan Ruxsat etilgan chegarali Xavfli O‘ta xavfli
4.	Xavfni sodir bo‘lish vaqti bo‘yicha	Oldindan bilish mumkin bo‘lgan Tusatdan sodir bo‘ladigan
5.	Xavflarni ta’siri davomiyligi bo‘yicha	Doimiy O‘zgaruvchan, davriy, qisqa muddatli
6.	Zararli ta’sir etadigan ob’ektlari bo‘yicha	Insonga ta’sir etuvchi, Tabiiy muhitga ta’sir etuvchi, Moddiy boyliklarga ta’sir etuvchi, Kompleks ta’sir etuvchi
7.	Xavfli ta’sirga uchragan odamlarning soni bo‘yicha	SHaxsiy, Guruhli (jamoaviy), Ko‘psonli
8.	Ta’sir etish zonasining o‘lchami bo‘yicha	Lokal, Hududiy, Hududlararo, Global
9.	Ta’sir etgan zonalar ko‘rinishi bo‘yicha	Xonada ta’sir etuvchi, Hududlarda ta’sir etuvchi
10.	Insonlarning sezgi organlarini xavlarni farqlay olish qobiliyati bo‘yicha	Seziladigan, Sezilmaydigan
11.	Insonga zararli ta’sirini ko‘rinishi bo‘yicha	Zararli, Jarohatlashga xavfli
12.	Insonga va atrof-muhitga ta’siri etish ehtimoli bo‘yicha	Patensial, Real, Amalga oshgan

Tabiiy ofatlar, sanoat avariylari va transport halokatlari, urush holatida dushman tomonidan turli xil qiruvchi qurollarni ishlatilishi favqulodda holatlarni keltirib chiqaradi.

Favqulodda holatlar - kutilmaganda, qo‘qqisdan sodir bo‘luvchi, aholining hayot faoliyatiga katta salbiy ta’sir etuvchi, amalda o‘rnatilgan jarayonlar turg‘unligini buzilishiga, iqtisodga, ijtimoiy sohaga va tabiiy muhitga ta’sir etuvchi holat va hodisalardir.

Har qanday favqulodda holatlar o‘zining fizik mohiyatiga ega bo‘lib, ular bir-biridan favqulodda holatlarga olib keluvchi sabablari, turi, harakatlanuvchi kuchi, rivojlanish xarakteri, insonga va u faoliyat ko‘rsatuvchi muhitga ta’sir etish xarakteri bilan farq qiladi. SHunga mos holda, favqulodda holatlar o‘zining bir necha belgilari asosida tasniflanishi, sistemalashtirilishi mumkin. Ular genezis xarakteriga (favqulodda holatlarni hosil bo‘lish sabablariga ko‘ra), rivojlanish sur‘atiga, xavfni (tarqalish tezligi) va favqulodda holatlar oqibatlari og‘irligini hisobga olgan holda, zarar keltiruvchi omillarini tarqalish masshtabiga ko‘ra tasniflanadi.

Favqulodda holatlar yuzaga kelish sabablariga ko‘ra tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, antropogen va ekologik halokatlar va ijtimoiy - siyosiy mojarolar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Tabiiy ofatlar - xavfli tabiiy hodisalar va jarayonlar bo‘lib, ular favqulodda yuz berib, insonlarning kundalik hayot tarzini buzilishiga, qurbonlar sodir bo‘lishiga, moddiy boyliklarni yo‘qotilishiga olib keladi. Ularga er qimirlashlar, suv bosimlar, vulqonlar,ssunami (okeanda suv osti zilzilasi yoxud vulqonlarning otilishidan hosil bo‘ladigan ulkan to‘lkinlar), sel oqimlari, bo‘ronlar, o‘rmon va torf yong‘inlari, qor bosishlari, tosh ko‘chishlari, qurg‘oqchilik, uzoq muddatli yog‘ingarchilik, qattiq sovuq, epidemiya, o‘rmon va qishloq xo‘jaligi zararkunandalarining ommaviy tarqalishi kabilar kiradi.

Tabiiy ofatlar hayvonlarning tez harakatlanishi (er qimirlashlar, ko‘chishlar), er ichki energiyasining bo‘shalish jarayoni (vulqonlar faoliyati, er qimirlashlar), daryo, ko‘llar va dengizlar suv sathining ko‘tarilishi (suv bosishlar,ssunami) va kuchli shamol ta’sirida (bo‘ronlar,ssiklonlar) yuz berishi mumkin. Ayrim tabiiy

ofatlarga (yong‘in, nurash, ko‘chish va boshqalar) inson faoliyati ham sabab bo‘lishi mumkin, lekin ularning natijasi tabiiy kuchlar ta‘sirida yuzaga keladi.

Mamlakatimizning har xil zonalarida er qimirlashlar, suv toshqinlari, sel kelish, ko‘chkilar, tog‘ va tepaliklardan toshlar ko‘chib yo‘l berilib qolishi, qurg‘oqchilik bo‘lishi, tabiiy yong‘inlar yuzaga kelishi mumkin. Kuchli tabiiy ofatlar aholi o‘rtasida o‘lim yuz berishiga, xalqning moddiy boyliklarini vayron bo‘lishiga olib keladi. Masalan, Respublikamiz hududidagi bunday kuchli tabiiy ofatlarga Toshkent zilzilasini (1966 y), Gazli zilzilasini, 1998 yildagi SHohimardondagi suv bosishlarini misol keltirishimiz mumkin.

Favqulodda bo‘lgan tabiiy ofatlarni mumkin qadar oldini olish yoki ma‘lum darajada ularning zararini kamaytirish mumkin. Buning uchun oldindan ogohlantiriluvchi choralar ko‘rilishi, seysmologik. Hidrometerologik stansiyalarning ma‘lumotlariga tayangan holda tabiiy ofatlar xavfi bor rayonlar aniqlanilib, evakuatsiya chora tadbirlari ishlab chiqilib xavfsizlik ta‘minlanishi lozim.

Xavfsizlik – bu ob‘ektning shunday himoyaki, bunda unga ta‘sir etuvchi barcha moddalar oqimlari, energiyalari va informatsiyalari maksimal ruxsat etiladigan miqdordan oshmaydi.

Tabiiy ofatlar butun davlat uchun halokatli hisoblanadi. Tabiiy ofatlar natijasida ko‘plab odamlar halok bo‘ladi, moddiy boyliklar nobud bo‘ladi, aholi turar joylari, sanoat korxonalari va boshqalar vayron bo‘ladi. Bunday tashqari tabiiy ofatlar ta‘sirida inson yashashi uchun noqulay, antisanitar-gigienik shart-sharoitlar vujudga kelib, ular turli xil yuqumli kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishimizga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kutubxonalarni loyixalashirishda asosiy e'tibor kutubxona binolarining joylashuvi, xonalarning jixozlanishi va jixoz turlari kabi muammolarga qaratilgan bo'ladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarishda bir necha vazifalar va muammolar hal etilgan bo'lib ularning ahamiyati va hozirgi kunda zarurati asoslab berilgan. Bu masalalarning tahlili va yechimi mazkur bitiruv malakaviy ishning mazmunini tashkil etadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, yaratilgan kutubxona loyixasini AutoCAD yoki 3D MAX kabi zamonaviy dasturlash texnologiyalaridan foydalangan xolda uch o'lchamdagi loyixalarini yaratish, bino va inshootlarni qurishni, undagi jixozlanish muammolarini nisbatan yengillashtiradi.

Umumiy hulosa qilib aytganda, BMI quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Axborot kutubxona inshootlarining elektron loyixalarini tayyorlashga yordam beruvchi dasturiy ta'minotlar ko'rib chiqildi;
- Kutubxonalar jixozlanishi uchun qo'yiladigan talablar hamda jixozlashda muhim no'lgan omillar o'rganib chiqildi;
- Axborot kutubxona dizayniga oid web sayt administratori faoliyatining funksional va tashkiliy tuzilmalari ishlab chiqildi;
- Joomla frameworki yordamida kutubxonalar dizayniga oid web sayt ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Xalq so'zi-1992.-8 dekabr.
2. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so'zi-2011.14 aprel.
3. Axborotlashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni.-1993 yil 7 mayda qabul qilingan //Xalq so'zi.- 1993.-18 iyun.
4. “2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida” 2011 yil 23 fevraldagi gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi –2011.-24 fevral.
5. “Respublika axolisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida” 2006 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi-2006.-20 iyun
6. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish= Organizatsiya raboty informatsionno-bibliotechnyx i informatsionno-resursnyx tsentrov: (Xujjatlar to'plami) / Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi; -T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nosi nashriyoti, 2007.-92 b.
9. Maxmudov M.X., Shokirov T., Niyazova E.N.Axborot kutubxona xizmati: Nazariyasi va metodologiyasi/ Darslik.-T., 2008. - 160 b. / TDMI
10. Maxmudov M.X. Kutubxona – axborot faoliyati menejmenti: O'quv qo'llanma.-T.,2007.-150 b./ TDMI
- 11..Maxmudov M.X. Kutubxona axborot faoliyati marketingi: O'quv qo'llanma.-T., 2007.-72 b. /TDMI
12. Karimov U. Elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyasi va manbalari / Mas'ul muharrirlar: M.A.Rahmatullaev, M.B.Bekmurodov; Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi.-T.: Fan, 2006.-194 b.

13. Karimov U.,Raxmatullaev M. Davriy nashrlar elektron katalogini yaratish texnologiyasi: Uslubiy qo‘ll./ Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi.- T.: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2006.-82 b.

14. “O‘zbekistonda kutubxonashunoslik ishini isloh qilish masalalari”= «Voprosy bibliotekhnogo dela Uzbekistana» «Betgerxonlik -2006” davra suhbat materiallari to‘plami / Tahrir kengashi: A.O.Umarov [va boshq]; Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi. –T.: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2007.-162 b.

15. Architectural and Design Standards for Presidential Libraries, part 4

16. Dorris Library Building Project

ILOVA

Index.php

```
<?php
defined( '_JEXEC' ) or die( 'Restricted access' );
JPlugin::loadLanguage( 'tpl_SG1' );
?>

<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD XHTML 1.0 Transitional//EN"
"http://www.w3.org/TR/xhtml1/DTD/xhtml1-transitional.dtd">

<html xmlns="http://www.w3.org/1999/xhtml" xml:lang="<?php echo $this->language;
?>" lang="<?php echo $this->language; ?>" >

<head>

<jdoc:include type="head" />

<link rel="stylesheet" href="templates/system/css/system.css" type="text/css" />
<link rel="stylesheet" href="templates/system/css/general.css" type="text/css" />
<link rel="stylesheet" href="templates/<?php echo $this->template ?>/css/template.css"
type="text/css" />

<!--[if lte IE 7]>

<link rel="stylesheet" href="templates/<?php echo $this->template ?>/css/ie.css"
type="text/css" />

<![endif]-->

</head>

<body>

<a name="up" id="up"></a>

<div class="center" align="center">

<div id="header">

<div id="top">

<div id="tabarea">
```

```

        <table cellpadding="0" cellspacing="0" class="pill">
            <tr>
                <td class="pill_m">
                    <div id="pillmenu">
                        <jdoc:include type="modules" name="user3"
/>
                    </div>
                </td>
            </tr>
        </table>
    </div>
    <div id="logo"></div>
</div>
</div>
</div>

<div class="center" align="center">

    <div id="wrapper">
        <div id="whitebox_m">
            <div id="area">
                <?php      if($this->countModules('left')      and
JRequest::getCmd('layout') != 'form') : ?>
                    <div id="leftcolumn" style="float:left;">
                        <jdoc:include      type="modules"
name="left" style="rounded" />
                        <?php  $sg  =  'banner';  include
"templates.php"; ?>
                    </div>
                    <div id="maincolumn">

```

```

        <?php else: ?>
            <div id="maincolumn_full">
        <?php endif; ?>

        <div class="nopad">
            <jdoc:include
type="message" />
            <?php            if($this-
>params->get('showComponent')) : ?>
            <jdoc:include
type="component" />
            <?php endif; ?>
        </div>
    </div>
    <div class="clr">
    </div>
</div>
</div>
<div id="footer">
    <div class="footer">
        <div id="sgf"><?php $sg = "; include
"templates.php"; ?></div>
        <p class="validation"><a
href="http://jigsaw.w3.org/css-validator/check/referer"></a><a
href="http://validator.w3.org/check/referer"></a></p>
    </div>
    <div id="footer_bg"></div>
</div>
</div>

```

</div>

</div>

<jdoc:include type="modules" name="debug" />

</body>

</html>